

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС  
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**ҚАРШИ МУҲАНДИСЛИК-ИҚТИСОДИЁТ ИНСТИТУТИ  
МУҲАНДИС-ТЕХНИКА ФАКУЛЬТЕТИ**

**ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ МЕХАНИЗАЦИЯЛАШТИРИШ  
КАФЕДРАСИ**

**ТРАКТОР ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ТЕХНИКАЛАРИ  
ДЕТАЛЛАРИНИ ҚАЙТА ТИКЛАШ МЕТОДЛАРИ**

**ФАНИДАН**

**ЭЛЕКТРОН ЎҚУВ МАЖМУАСИ**

## **ҚАРШИ 2020**

### **Тузувчилар:**

Аликулов Саттар Рамазанович- Қишлоқ хўжалигини механизациялаштириш кафедраси профессори, техника фанлари доктори

Чоршанбиев Равшан Холмуродович- Қарши мухандислик-иктисодиёт институти Қишлоқ хўжалигини механизациялаштириш кафедраси катта ўқитувчиси

### **Тақризчилар:**

Давлатов Фарход - “Қарши таъмирлаш заводи” МЧЖ бош мухандиси

Бегимкулов Файзулла Эргашевич - Қарши мухандислик-иктисодиёт институти Қишлоқ хўжалигини механизациялаштириш кафедраси доценти, техника фанлари номзоди

Мазкур мажмуа Қишлоқ хўжалигини механизациялаштириш кафедрасининг 2020 йил даги (баён № ), Муҳандис-техника факультети Услубий комиссиясининг 2020 йил даги мажлисида (баён № ), Қарши мухандислик-иктисодиёт институти Ўқув-услубий кенгашининг (баён № ) мажлисларида қуриб чиқилган ва 5610000 “Хизмат кўрсатиш техникаси ва технологияси (қишлоқ хўжалиги

техникаларига хизмат кўрсатиш бўйича)” бакалавриат таълим йўналиши ўқув жараёнига тавсия қилинган.

## **1-Ma`ruza**

### **KIRISH. FANNING MAQSADI, VAZIFALARI VA MAZMUNI**

Reja

1. Mashina detallarini qayta tiklash metodlari fanining maqsadi va vfzifalari
2. Texnologiya to`g`risida tushuncha
3. Mashinalarni ishlatish sharoyitlarining xususbyatlari

Prezidentimiz SH. Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevralda tasdiqlagan O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha “Harakatlar strategiyasi”ning to’rtinchi ustuvor yo’nalishining to’rtinchi bandida ta’lim tizimi to’g’risida bir qancha rejalar belgilab olindi. Ta’lim berishda ilg’or pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish kabi masalalar Prezidentimizning 2017 yil 20 apreldagi 2909-sonli qarorida ham mustahkamlab qoyildi. O’zbekiston Respublikasini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishga qaratilgan dasturni amalga oshirishda fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta qurollantirish va kengaytirish, amaldagi ishlab chiqarishdan jadal foydalanish, boshqaruv tizimini takomillashtirish asosida ishlab chiqarishni rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish eng zarur vazifalardan hisoblanadi.

Fanni o‘qitishda mashinalarning texnik holatiga ta’sir etuvchi omillar, Mashinalarni kapital ta’mirlash texnologiyasi, detallarni ta’mirlash usullari, traktorlarning tepovoy detallarini ta’mirlash, qishloq xo’jalik mashina va jihozlari detallarini tiklash texnologiyasi va usullari keltirilgan. Davlat va hukumatning qarorlaridan kelib chiqib, agrosanoat majmuasida foydalaniladigan mashina va uskunalarining ta’mirlash sifatini oshirish masalalari, hamda mamlakatimiz va ushbu fanni rivojlangan horijiy davlatlat fan va texnika yutuqlari asosida yoritish ko’zda tutilgan va bayon qilingan.

Fanni o‘qitishdan maqsad tayyorlanayotgan keng qamrovli mutaxassisiga detallarni ta’mirlash usullari, traktorlarning tepovoy detallarini ta’mirlash, qishloq xo’jalik mashina va jihozlari detallarini tiklash texnologiyasi\_muammolari haqida

nazariy va amaliy bilimlar berish, unda fanga, o‘z kasbiga qiziqishni orttirish kabi sifatlarni shakllantirishdan iborat.

*Fanning maqsadi* – talabalarga mashinalarni ta`mirlash texnologiyasi, detallarni ta`mirlasah usullari, detallarni tiklash texnologiyasi va usullari bo`yicha bilim, kunikma va malaka shakllantirish.

*Fanning vazifasi* – talabalarga traktor, qishloq xo`jaluk mashinalari va jihozlarida sodir bo`ladigan nosozliklarining asosiy sabablaridan mashina uzellaridagi ishqalanish va eyilish jarayonlari ekanligini, mashina detallari, uzel va agregatlarining detallarini ta`mirlash texnologiyasi va usullari bilan tanishtirishdan hamda maxsus korxonalarda detallarni ta`mirlash uchun bajariladigan metodlar xaqida amaliy tushunchaga ega bo`lishi kerak.

Talabaga fanni o`rganish davrida malaka, bilim, tasavvur va kunikmalariga quyidagi talablar qo`yiladi:

- bazaviy qayta tiklash metodlari xaqida tasavvurga ega bo`lish;
- traktor va qishloq xo`jaligi mashina detallallarini qayta tiklash metodlarini bilish;
- bosim ostida ishlov berib tiklash usullarining va ularning qulaylarini tanlashni bilish;
- payvandlash va qoplama qoplab detallarni tiklash texnologik jarayonini qullashni bilish;
- detallarni tiklashda mexanik ishlov berish usullarini qo`llasni bilish;
- detallarni tiklashda ta`mirlsh o`lchamlarini tanlash va tadbiq qilishni bilish;
- detallarni tiklashda zamonaviy ta`mirlash usullarini qo`llashni bilish;
- qayta tiklash texnologik jarayonini tuzish va joriy etish kunikmaga ega bo`lish;
- ta`mirlash korxonasida qo`llanilayotgan detallarni qayta ta`mirlash malakalariga ega bo`lishi kerak.

Laboratoriya ishlari talabalarda mashina detallarini ta`mirlash texnologiyasi, mashinaning texnil holatiga ta`sir etuvchi omillar, paydo bo`ladigan nuqsonlar, ta`mirlasdan oldin detallarni saralash, ta`mirlangan detallardan uzel va birikmalarni yig`ish texnologik jarayonlarini urganadi. Laboratoriya mashg`ulotlarni kurgazmali suollar, o`quv adabiyotlar, uslubiy qo`llanmalar, detallarni ta`mirlash jihozlari bilan ta`minlangan xonalarda va ishlab chiqarish korxonalarda utiladi.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o`quv qo`llanmalardan foydalanib fan boblari va mavzularini o`rganish;
- yangi texnikalar, uskunalar, jarayonlar va texnologiyalarni o`rganish;
- talabaning o`quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog`lik bo`lgan fanlar bo`limlsri va mavzularini chuqur o`rganish.

Har bir mashina, uskuna, uzel, birikma va mexanizmlar turli detallar yig`indisidan iborat bo`ladi. Detallar xomashyo materiallardan talab etilgan shaklda, o`lchamlarda dastgohlar, moslamalarda asboblar yordamida ishlov berilib tayyorlanadi. Ushbu detallarni tayyorlash jarayoni texnologiya deb ataladi. Demak, texnologiya – aniq bir jarayonni bajarish ketma-ketligi.

#### Nazorat savollari

- Fanning maqsadi nima
2. Fanning vazifalaridan nimalarini bilasiz
  3. Texnologiya deganda nimani tushunasiz
  4. Ishlab chiqarishda mahsulot etishtirishda ketma ketlikda nimalar tushuniladi
  5. Fanni urganishda talabalarga qanday kunikma va talablar qo`yiladi
  6. Detallarni qayta tiklash deganda nimalar tushuniladi
  7. Yangi texnika deganda nimani tushunasiz
  8. Uskuna deganda nimani tushunasiz
  9. Jihoz deganda nimani tushunasiz
  10. Tiklanadigan detallarga qanday ishlov turlari beriladi

## **2- Ma`ruza**

### **MASHINANING TEXNIK HOLATIGA TA`SIR ETUVCHI OMILLAR**

Reja:

1. Texnik holat va hodisalar.
2. Mashinalarning sifatliligi.
3. Mashinaning texnik holati.

I/ch va T texnoligiyasi

Konstruksiya

Texnik darajasi

Takomilligi

Ishonchlilik xususiyatlari

Turli tuproq

Turli yo`l

Mashinaning ish sharoiti

Turli iqlim

Texnikadan foydalanish sharoitlari

Saqlovchanlik

Chidamlilik

Buzilmasdan ishslash

Tamirga yaroqlilik

**Buzilmasdan ishslash** – ma`lum vaqt davomida yoki hajmdagi ishni bajargunga qadar mashina ishslash qobiliyatini saqlash xususiyati.

**Chidamlilik** (uzoq muddat x.k) – ob`yekt TXK va T tizimi qo`llanilganda o`zining ishslash qobiliyatini oxirgi holatga yetguncha saqlash xususiyati.

**Ta`mirlashga yaroqlilik** (ta`mirboplik) – mashinaga TXK va tamirlash yo`li bilan ishlamay qolishning oldini olish, aniqlash va bartaraf etishga moslashganligi.

**Saqlanuvchanlik** – mashina, detalning o`z ish ko`rsatkichlarini saqlashi, ya`ni saqlanish muddati davomida va bu muddat tugagandan keyin ham texnik hujjatlarda ko`rsatilgan qiymatida saqlanib qolish xususiyati.

Mashinaning sifatlilik guruhlari

Eksplutatsion xossalari

Ishonchliligi

Texnologikligi

Standartliligi, o`zaro almashinuvchanligi

Texnik, estetik, ergonomik ko`rsatkichlari

Yonilg`i sarfi

Harakat tezligi

Tortish kuchi

Quvvat

Mashinaning texnik holati turlari

Foydalanishning oxirgi holati

Ishga yaroqsiz

Soz

Nosoz

Ishga yaroqli

**Ishga yaroqlilik** – berilgan vazifalarni talabdagi mos bajara olishi. Mashinaning texnik holati, uning sifatini aniqlaydigan texnik shartlari barchasi talabdagi day qondirilsa texnik holati ishga yaroqli, aks holda yaroqsiz hisoblanadi.

**Ishlamay qolish yoki buzilish** – mashinaning ishlash qobiliyati yo`qolishidan iborat bo`lgan hodisa.

**Mashinaning soz holati** – texnik shartlar va texnologik talablarning barcha bandlariga to`liq javob berishi.

**Nosozlik** – mashina texnik hujjatlaridagi talablarning loaqal bittasiga mos kelmaydi.

**Buzilish** – nosozlikning bir turi. Agar nosozlik ishni agrotexnik talablariga muvofiq bajarilishiga xalaqt bersa, ish qobiliyati qisman yoki to`liq yo`qolishiga olib kelsa, mashina buzilgan hisoblanadi.

### Ishlamay qolish sabablari

Detallar sirtlari yeyilishi

Turli xil shikastlanishlar

Turli kamchiliklar

Foydalanish qoidalariga amal qilmaslik

Eskirishjarayonlari

Deformat-siyalanishi

Korroziya natijasida yemirilish

Toliqish

**Mashinaning soz holati** – texnik shartlar va texnologik talablarning barcha bandlariga to`liq javob berishi.

**Nosozlik** – mashina texnik hujjatlaridagi talablarning loaqlar bittasiga mos kelmaydi.

**Buzilish** – nosozlikning bir turi. Agar nosozlik ishni agrotexnik talablariga muvofiq bajarilishiga xalaqtib bersa, ish qobiliyati qisman yoki to`liq yo`qolishiga olib kelsa, mashina buzilgan hisoblanadi.

Texnologik

Nosozlik

Texnik

Texnologik parametrlar o`zgarishiga (jarayon sifatsiz bajarilsa) olib kelgan nosozlik.

Texnik parametrlari o`zgarishi, yoki talablardan chetga chiqishiga olib kelgan nosozlik.

Xizmat muddati

Qo`yilgan talablarning bajarilish davri

Birinchi KT gacha

Hisobdan chiqarilgunga qadar

**Texnik resurs** – mashinaning texnik hujjatlarda izohlangan oxirgi holatga qadar bajaradigan ish hajmi.

### Texnik resursning turlari

O`rniga qoldiq resurs

To`liq texnik resurs

Kapital tamirlararo

Birinchi kapital tamirgacha

### Mashina resurslarining oxirgi holati

Tiklansa ham iqtisodiy samara bermasligi

Ish qobiliyatini tiklab bo`lmasligi

Xavfsizlik takablariga javob bermasligi

Bundan keyin undan foydalanish mumkin emasligi

**Kafolat muddati** – zavod yoki tamirlash korxonasining mashinaga qo`yilgan talablarning bajarilishiga kafolat bergen davr.

**Kafolatlangan ish hajmi** – kafolat muddatida bajarilgan ish hajmi. Shu davrda ehtiyoq qismlar bilan taminlaydi, zarur bo`lsa ta`mirlab, mashinaning ish holatini tiklab beradi.

**Zaxiralash** (rezerv) – mashinaga ehtiyoq qismlar kiritib uning ishonchliligin oshirish. Elementlardan birortasi ishdan chiqqanda ehtiyoq qism uning o`rnini bajaradi.

### Nazorat savollari

1. Mashinaning ishlashida qanday sharoyitlar, bo`liksi mumkin
2. Mashinaning texnik holatining qanday turlarini bilasiz
3. Mashina soz deganda nimani tushunasiz
4. Qanday nosozkiklar boladi
5. Texnik nosozlik deganda nimani tushunasiz
6. Texnologik nosozlik deganda nimani tushunasiz
7. Texnik resurs deganda nimani tushunasiz
8. Texnik resursning qanday turlarini bilasiz
9. Kafolat muddati deganda nimani tushunasiz
10. Kafolatlangan ish hajmi deganda nimani tushunasiz

### **3-Ma`ruza**

#### **YEMIRILISH, YEYILISH VA ULARNING TURLARI**

Reja:

- 1.Yeyilish turlari va kelib chiqish sabablari.
- 2.Yeyilishning turlari.
- 3.Yemirilishning turlari.
- 4.Ishqalanish turlari.
- 5.Moy va uning yeyilishga tasiri.

Detalning yaroqsiz holatga kelishiga sabablar (nuqsonlar)

Shakl o`zgarishi

Yemirilish

Sinish

Darz ketish

Xususiyatlarning o`zgarishi

Sinish, darz ketish va shakllarni o`zgarishi detalning yejilishi oqibatida yuzaga kelishi ham mumkin.

Yemirilish, xossa va xususiyatlarning o`zgarishi esa ko`proq fizik muhit ta`siriga bog`liq. Foydalanilmay saqlovdagi detalning ham xossa va xususiyatlari o`zgaradi. Masalan, rangli metall oksidlanib yemirilishi, plastmassa quyosh nuri ta`sirida egiluvchanlik xossasini o`zgartiradi.

Yeyilish jarayoniga ta`sir etuvchi omillar

Moylash material-lining ifloslanish darajasi

Harorat o`zgarishi

Moyning mav-judligi, xarak-teri va xossalari

Detallar sirtiga tushadigan tuklanish

Tutash juftliklarning ish sharoiti (titrash, korroziya va h.k)

Detallarning bir biriga nisbatan joylashishi (qo`zg`aluvchan tutashmalar uchun)

**Siyqalanish** – ishqalanish tufayli detallarning sirlari bo`ylab o`lchamlarining asta-sekin o`zgarish jarayoni.

Tashqi muhit – havodagi kislород (ish organlar, kuzov korpus, shassi va h.k) bilan tasirlashganda

Zangli yemirilish

Katta o`zgaruvchan qoplanishlar natijasida, sabab – o`yiqlar, detal materiali bir jinsli emasligi, ishlov berishdagi nuqsonlar

Toliqib yemirilish

### Yemirilishning turlari

Detallar materiallari sirtki qoplamlari plastik deformatsiya yoki tashqi muhitning fizik-kimyoiy ta`siridagi yeyilish

Ishqalanish jarayonida mexanik va molekular kuchlarning bir vaqtida o`zaro ta`siri natijasida yeyilish

Mexanik ta`sirlar oqibatida

Zangli-mexanik yeyilish

Molekular-mexanik yeyilish

Mexanik yeyilish

### Detal sirtlarining shikastlanish turlari

Ishqalanish sirtida ternalish va darzlar

Shakli - Oval

Diametri kichrayadi (kattalashadi)

Tsilindrik detal yeyilganda

Kuchlar va burovchi momentlar ta`sirida egilish, buralish yoki toplanish, qoidasi buzilganda kuzatiladi

Deformatsion yemirilish

**Yeyilish** – ishqalanuvchi sirtlardan metall zarrachalari ko`chib siyqalanishi natijasida detalning o`lchamlari o`zgaradi.

## Ishqalanish turlari

**Ishqalanish** – mashina detallari (o`zaro tegib turuvchi sirtlari bir biriga nisbatan harakatlanganda) yeyilishning asosiy sabablari. Ishqalanishni kamaytirish uchun sirtni moylash kerak.

**Tashqi ishqalanish** – bir-biriga urinib harakatlanganda ikki jismning urinish tekisligida nisbiy harakatga qarshilik qiluvchi hodisa.

**Ichki ishqalanish** – eritmalar, gazlar va plastik materiallarda yuzaga keladigan qisilish hodisasi.

### Ishqalanish turlari

Dumalab-sirpanib ishqalanish

Dumalab ishqalanish

Tinch holatda ishqalanish

Sirpanib ishqalanish

Bir paytning o`zida ham dumalab ham sirpanib ishqalanish

Bir-biriga tegib turgan sirtlar mikro ilashishi natijasida

Bir jism ikkinchi jism ustida dumalashida hosil bo`ladi

Ikki jismning bir-biriga tegib turgan sirtlari

**Quruq ishqalanish** – moysiz jismlar ishqalanishi.

Sirt qatlami gidrostatik

Qattiq moylash

**Moyli ishqalanish** – sirtida har qanday turdagи moylash materiali bo`lgan ikkita jismning ishqalanishi.

Gazostatik

Suyuqlikli

Moylashning turlari

Gazli

Nazorat savollari

1. Detalning yaroqsiz holatga kelishiga qanday sabablarni bilasiz
2. Eyilishning qanday turlarini bilasiz
3. Eyilishning kelib chiqish sabablari
4. Eyilish jarayoniga qanday omillar ta`sir etadi
5. Yemirilish deganda nimani tushunasiz
6. Yemirilishning qanday turlarini bilasiz
7. Tashqi ishqalanish deganda nimani tushunasiz
8. Ichki ishqalanish deganda nimani tushunasiz
9. Quruq ishqalanish deganda nimani tushunasiz
10. Moyli ishqalanish deganda nimani tushunasiz

## **4-Ma`ruza**

### **DETALLAR YEYILISHINI ANIQKASH USULLARI**

Reja:

- Organometrik usul
- Universal o`lchov asboblaridan foydalanish usuli
- Og`irligini o`lchash usuli
  - Organometrik usul
    - Buralishi
    - Egilishi
- Radioizotoplar qo`llash va spektral tahlil usuli

Yeyilish va yemirilishni aniqlash usullari

Maxsus asbob yordamida o`lchash yo`li bilan

Detalni tashqi ko`zdan kechirish

Sinishi

Tob tashlashi

Shovqinni eshitilishi

Zanglashi

Qurum va quyqanining hosil bo`lishi

Agregat bo`laklarga ajratiladi

Universal asboblardan foydalanish

Vallar, shlitsalar, shesternya tishlari

Boshqa maxsus asboblar

Nutromer

Mikrometr

Shtangensirkul

Shablon

Kalibr

**Texnik hujjatlarda keltirilgan bo`ladi**

Eng katta qiymati

Yo`l qo`yilgan

Normal

Usulning mohiyati – moy bilan aralashgan metall qirindilarining miqdorini va tarkibini (mis, aluminiy, qo`rg`oshin) o`rganish orqali yeyilayotgan detal nimadan yeyilganligi, hamda qanday jadallik bilan yeyilayotganligini aniqlash

**Spektral-tahlil usuli**

Afzalligi:

- bo`laklashga ehtiyoj yo`q
- aniqlik yuqori
- o`lhash tez amalga oshiriladi

**Radioizotoplarni qo`llash**

Kamchiligi:

- jihozlar qimmat
- o`lhash jarayoni murakkab
- maxsus ehtiyot choralarini ko`rish

Porshen vtulkasi

Porshen qistirmasi

Porshen halqasi


**Og`irligini o`lhash usuli**

Texnik hujjatlardagi o`lcham bilan taqqoslanadi

Detallarning o`lchamlari

**Moy va uning yeyilishga ta`siri.**

Moy detallar sirtidagi ishqalanish kuchini kamaytiradi. Sirpanish yaxshilashadi, ishqalanish kuchi kamayadi, bu esa detallarning yejilishini kamaytiradi. Zanglashdan asraydi.



Noorganik

Moylar tarkibi

Organik

Moylar holati

Gazsimon

Suyuq

Quyuq

Yuqori aniqlik asboblarda

Vodorod

Havo

Azot

Neon

### Nazorat savollari

1. Eyilish va emirilishni aniqlash qanday usullari mavjud
2. Organometrik usul deganda nimani tushunasiz
3. Universal o`lchov asboblaridan foydalanish usuli deganda nimani tushunasiz
4. Og`irligini o`lchash usuli deganda nimani tushunasiz

### Organometrik usul

Buralishi

Egilishi

5. Radioizotoplar qo`llash va spektral tahlil usuli deganda nimani tushunasiz
6. Spektral-tahlil usuli deganda nimani tushunasiz
7. Detallarning o`lchamlari nimalar bilan taqqoslanadi
8. Normal o`lcham deganda nimani tushunasiz
9. Yo`l qo`yilgan o`lcham deganda nimani tushunasiz
10. Eng katta qiymatli o`lcham deganda nimani tushunasiz

**5-Ma`ruza**

## **MASHINA DETALLARI NUQSONLARINING TURLARI**

Reja:

1. Detallarning nuqsonlari haqida ma`lumotlar
2. Nuqsonli detallarni tiklash usullari
3. Nuqsonlarning turlari

Transport va qishloq xo`jalik mashinalarining barcha detallarini ish muddatiga qarab 3 guruhga bulish mumkin.

Ish muddati bo`yicha

3-guruh

Tamirlangandan keyingina yana ishlatish mumkin. Ular 40-45% ni tashkil qiladi

2-guruh

Tamirlamasdan yana ishlatish mumkin. Ular 30-35% ni tashkil qiladi

1-guruh

Ish muddatini to`liq o`tagan. Ular 25-30% ni tashkil qiladi

Faqat tamirlashdan keyin foydalanish mumkin.

Bular – silindrlar bloki, tirsakli val, uzatmalar qutisining karteri, orqa ko`prik taqsimlash vali Qimmat va murakkab detallar. Tamirlab tiklash mumkin. Bunga ish sirtlari chegaralari yeyilgan detallar

Tamirlash paytida yangi detal bilan almashtiriladi.

Bular – porshen, porshen halqasi, podshipnik vkladishi, vtulkalar kabi texnik buyumlar

### **Afzalliklari:**

Detallarni tiklash uchun sarflanadigan mablag` ularni tayyorlash harajatlaridan 2-3 marta kam bo`ladi.

Chunki detallarni tiklashda ashyolar, elektr energiyasi va mehnat sarfi ancha qisqaradi.

## Detallardagi nuqsonlar

Konstruktiv

Texnologik

Eksplutatsion

Mashinadan foydalanish jarayonida vujudga kelgan nuqsonlar (yeyilish, sinish, uzilish, darz ketish va boshqalar)

Texnologik jarayon bajarilishini tamirlashga oid nuqsonlar (texnologik jarayon agregat ichida bajarilmaydi tiqilib qolish, aylanmaslik tez yoki sekin aylanish)

Detal zavodda tayyorlanganda yoki tamirdan chiqqandagi mavjud nuqsonlar (o`lchamlardagi nuqsonlar, yoki chizmada qilingan xatolar)

## Nuqsonlarni tiklash guruhlari

Metall purkab qoplash

Kavsharlash

Metallash

Bosim bilan payvandlash

Suyuqlantirib payvandlash

Puxtalash usulida ishlov

Elektr bilan ishlov

Plastik deformatsiya bilan ishlov berish

Elektrolitik usulda metall qoplash

Polimer materiallardan foydalanish

Sintetik ashyolardan foydalanish

Val va o`qlarning assosiy nuqsonlari

Markaziy teshik va rezbalar yeyilishi

Bukilishi, buralishi

Podshipniklar ish o`rni yeyilishi

Sirtlarning yeyilishi

Mexanik yeyilish

Yeyilishning asosiy turlari

Toliqib yeyilish

Mo`rt yeyilish

Qayishqoq deformatsiya kechishi

Zarrachalardan yeyilish

Oksidlanish natijasida yeyilish

Korroziya (zanglash) natijasida yeyilish

Korrozion-mexanik yeyilish

Yopishib qolish natijasida yeyilish

Molekular yeyilish

Issiqlikdan yeyilish

Freting korroziya

Oksidlar ta`sirida yeyilish

### Nazorat savollari

1. Detallarning ishlash muddati necha guruhgaga bulinadi
2. 1-guruh tasnifi nimalardan iborat
3. 2-guruh tasnifi nimalardan iborat
4. 3-guruh tasnifi nimalardan iborat
5. Detallardagi nuqsonlar nechta turlargabulinadi
6. Konstruktiv nuqsonlar ta`rifi
7. Texnologik nuqsonlar ta`rifi
8. Ekspluatatsion nuqsonlar ta`rifi
9. Nuqsonlarni tiklashda qanday usullarni bilasiz
10. Nuqsonlarni tiklash guruhlarining tasniflari

### 6-Ma`ruza

## TRACTOR AGREGATLARI DETALLAEINING NUQSONLARI

Reja:

- Val va o`qlarning asosiy nosozliklari
- Traktor dvigateli shatun- porshen guruhi nosozliklari
- Tirsakli va taqsimlash vallarining nosozliklari

- Gaz taqsimlash mexanizmi detallarining nosozliklari
- Sovitish tizimi detallarining nosozliklari

Porshendagi nuqsonlar

Shatun-porshen guruhiga xos nuqsonlar.

Porshen yubkasi yeyilishi

Ish sirtida darzlar dag`al joylar paydo bo`lishi

Bobishkalardagi teshiklar yeyilishi

Porshen halqalarining ariqchalari yeyilishi

Yuqori kallak vtulkasi bo`sab qoladi

Shatunlarga xos nuqsonlar

Porshen yaroqsiz hisoblanadi va tashlab yuboriladi

Shatun bilan qopqoqning tegib turgan sirlari yeyiladi

Vkladishlar bilan tutashuv pastki kallak yeyiladi

Porshen barmog`i bilan tutashuvchi vtulka yeyiladi

Gayka va shatun bolti kallagi tayanib turadigan sirtlar yeyiladi

Shatun egiladi yoki buraladi

### **Shatunga xos nuqsonlar**



- rasm 1- vkladishlardagi chiqiq, 2;6- ikki tasvirli shatun o`zagi, 3-bronza vtulka, 4- moy uchun teshikcha, 5-shatunning yuqori kallagi, 7- bolt, 8- gayka, 9- shatunning pastki ajraladigan kallagi, 10- sirpanuvchi podshipniklar (vkladishlar), 11- pastki kallak qopqog`i

### **Tirsakli vallarga xos nuqsonlar**

#### **Nuqsonlarning turlari**

Val toresida sharikli podshipnik turadigan teshik yeyiladi

Moy qayta-rish rezba yeyiladi

Maxovik, shkivlar o`rnataladigan joylar yeyiladi

Taqsimlash shesternyasi yeyiladi

O`zak va shatun bo`yinlari yeyiladi yoki shikastlanadi (oval bo`lib qoladi)

Val egiladi

Maxovikni mahkamlash boltining teshigi yeyiladi

Maxovik uchun mo`ljallangan flanes toresi tega boshlanadi

Kranovik qadaladigan rezba yeyiladi

O`zak va shatun bo`yinlari oval shaklida yeyiladi/ O`zak bo`yin – 0.06-0,8 mm, shatun bo`yin – 0.05-0.06 mm

Nuqsonlarning turlari

### **Tsilindrler kallagiga xos nuqsonlar**

Rezbaning uzilishi

Rezbaning yeyilishi

Klapanlar uyalarining yeyilishi

Blokka tegib turadigan joylar qiyshayishi

Darzlar

Kallakning tores tekisligi uyaning tores tekisligiga to`la tegib turmaydi

Kallak uchastkalari bir meyorda qizimasligi

### **Klapanlarga xos nuqsonlar**

Nuqsonlarning turlari

Sterjenning diametri va toresidan yejilishi

Tarelka faskasining kuishi

Tarelka faskasining yejilishi

Nuqsonlarning turlari

Shtanga uyasi yejilishi

Sterjen diametri bo`ylab yejilishi

Tarelkaning taqsim-lash vali kulachoklari bilan shikast-lanish natijasida yejilish

Taqsimlash valining asosiy nuqsonlari

Taqsimlash shesternyasi o`rnatiladigan bo`yinlar yeyilishi

Tayanch bo`yinlar yeyilishi

Kulachok (mushtcha)lar yeyilishi

Taqsimlash shesternyasining tishlari profili bo`ylab va shponka ariqchalari yeyiladi

Noto`g`ri qismlarga ajratilgan yoki noto`g`ri saqlangan taqsimlash vali egilib qoladi

Taqsimlash vali mushtchalarining uchlari eng ko`p yeyiladi

Korpuslar va valiklarning flaneslarning sinishi

Rezbaning yeyilishi va o`yilishi

Detallar darz ketishi

Korpus, vtulka va valiklarning tutashuv joylaridagi yeyilishlar

Korpuslar va valiklarning podshipniklar o`tkaziladigan joylarining yeyilishi

Suv nasosi va ventilyatorning asosiy nuqsonlari

Radiatorning shikastlanishi va undan suv oqishi

Ventilyator detallarining yeyilishi va shikastlanishi

Suv nasosi detallarining yeyilishi

Sovitish tizimi uzellari va detallarining nuqsonlari

Moy nasosi detallarida nuqsonlar

Korpus yoki vtulka va nasos valigi tutashgan joylar yeyiladi

Reduksion klapanning germetikligi yo`qoladi

Yetaklanuvchi shesternya tutashgan joydagi barmoq yeyiladi

Haydovchi shesternyalar tishining profili va toresi yeyiladi

Darzlar va boshqa mexanik shikastlar paydo bo`ladi

Shesternyalar va korpus devorlari bilan nasos qopqog`i orasidagi tirqish kengayadi

### Nazorat savollari

1. Vallarning turlari va ularning asosiy nosozliklari
2. Traktor dvigateli shatun- porshen guruhi detallarining nosozliklari
3. Tirsakli va taqsimlash vallarining nosozliklari
4. Gaz taqsimlash mexanizmi detallarining nosozliklari
5. Sovitish tizimi detallarining nosozliklari
6. Tsilindrlar kallagiga xos nuqsonlar
7. Klapamlarga xos nuqsonlar
8. Suv nasosi va ventilyatorning asosiy nuqsonlari
9. Radiatorning asosiy nuqsonlari
10. Moy nasosi detallariga xos nuqsonlar



## **8-Ma`ruza**

### **MASHINA DETALLARINI TA`MIRLASHNING ZAMONAVIY USULLARI**

Reja:

- Polimer materiallar qoplash turlari va usullari
- Payvandlash turlari
- Detallarni gaz alangasida payvandlash
- Detallarni elektr yoy bilan payvandlash

Polimer materiallar – asosan yuqori molekular organik birikmalardan iborat materiallar. Ular yuqori harorat va bosim ta`sirida avvaldan belgilangan shaklni hosil qiladi va bu shaklni odatdagi sharoitda saqlab qoladi.

Polimer materiallar

Puxtaligi

Yaxshi friksion va antifriksion sifati

Detallarni tiklash va yasash osonligi

Moy, benzin va suvgga chidamliligi

Tannarxning arzonligi

Kam mehnat sarfi

Polimer bilan qoplash usuli afzalliklari

Steklovoloknit (GOST 10087-92)

Voloknit TU NKLP – 459-41

Polietilen VTU MXA – 4138 55

Ftoroplast VTU FA-4-59

Kley VS10T

Polikapro anit UXP-67

Termoplast

Epoksid smolalari

ED - 6

ED - 5

**Plastmassa tarkibi** – sun`iy (sintetik) yoki tabiiy smolalar (polimer) bo`lib ular bog`lovchi vazifasini bajaradi.

**To`ldiruvchilar** – (metall qirindilari, paxta-qog`oz to`qimalari, asbest, grafit) plastmassaning xususiyatlarini yaxshilaydi

Polimer materiallarning kamchiligi

Harorat o`zgarishi bilan fizik – mexanik xossalari o`zgarishi  
Toliqish natijasida puxtaligi va issiqbardoshligining kamayishi  
Qattiqligining nisbatan kamligi

### **Plastiklovchilar** – qovushqoqlik beradi

**Qotirgichlar** – (aminlar, magneziy, oxak) qattiq va erimay turish holatiga o`tkarishga yordam beradi

Polimer bilan qoplash usullari

Bosim ostida quyish (eritib detalni yasash usuli)

Presslash (eritmasdan detalni yasash usuli)

Markazdan qochirma quyish usuli

Yupqa polimer qatlami bilan qoplash

Payvandlash usullari

(chiziqchalar) Gaz yordamida payvandlash

Detallarning ayrim joylarini eritib payvandlash

Temirchilik usuli (qurada)

Gaz va elektr yordamida. Birikmaning tutash joylari qizdiriladi (metall o`ta qizib struktura tarkibi o`zgarishi mumkin)

Biriktiriladigan joylar yumshab xamirsimon holatgacha qizdiriladi (oldin detal yaxshilab tozalanadi)

Yonuvchi gazning toza kislorod bilan aralashmasi alangasi bilan qizdiriladi ajralmas holatiga kelgungacha yonuvchi gaz va kislorod ma`lum proporsiyada qo`shilishi lozim

Elektr yoy usuli

Konstruksion po`lat, mis, alyuminiy, nikel, titan va ularning qotishmalarini

Yoyli payvandlash

Kontaktli payvandlash

**Payvandlash** – detallarning ma`lum joylarini suyuqlanish haroratigacha qizdirib, molekular tiklash kuchlaridan foydalanib, ajralmas birikma hosil qilish jarayoni.

**Bo`yoqlar** – (nigrozin, oxra, mumiyo, surma) polimerga rang beradi.

**Elektrokontakt** – usulida metall kukunini qizdirib yopishtirish

**Elektrokontakt usulida** metall kukunini yopishtirish val va o`q tipidagi detallarni tiklashda ishlatiladi.

**Masalan:** detal tokarlik stanogining shpindeliga o`rnataladi. Aylanuvchi detal bilan mis rolik – elektrod orasiga metall kukuni (aralashma) uzatiladi, rolik pnevmo- yoki gidrosilindr yordamida 0,75-1,2 kN kuch bilan detalga siqiladi. Detal va rolikni dumalatish davrida ularning tegish joyidagi katta elektr qarshiligi natijasida kukun 1000-1300° C qiziydi va qizigan zarrachalar detal sirtiga yopishadi. Detalning bir aylanishdagi qatlam qalinligi 0,3-1,5 mm gacha bo`ladi.

**Elektrokontakt usulida suyuqlantirib** qoplashda rolik bilan detal orasiga sim yoki lenta uzatiladi.

**Elektryoyli metallash.** Metallash (metall purkash) jarayoni metall simini yoki kukunini suyuqlantirib va mayda zarrachalar (3-300mkm) holida inert gaz yoki havo oqimida detalning maxsus tayyorlangan sirtiga purkashdan iborat.

### Metallash usullari

Plazmaviy metallash (plazma oqimi yordamida suyuqlantirish)

Gaz alangasida metallash

Elektr yordamida metallash

**Xromlash** – uncha keng ishlatilmaydi (maxsus vannalar kerak bo`ladi).

**Temirlash** – xlorli elektrolitlardan tyilishga chidamli qattiq qotishmalar hosul qilish (detal sirtiga temir chuktiriladi).

### Kavsharlash

Elektron platalarini ta`mirlashda, elektr simlarni ulashda, yupqa devorli naychalarni ta`mirlashda, birlashtirishda qo`llaniladi.

## Nazorat savollari

1. Polimer materiallarning asosiy tasniflari
2. Polimer materiallarning qanday asosiy turlarini bilasiz
3. Polimer bilan qoplash usulining asosiy afzalliklari
4. Plastmassaning tarkibiy qismlari nimalardan iborat
5. Polimer materiallarning asosiy kamchiliklari nimalardan iborat
6. Qotirgichlar nima vazifalarni bajaradi
7. Polimer bilan qoplashning qanday usullarini bilasiz
8. Qishloq xo`jalik mashinalarining qanday detallarini tiklashda polimer materiallardan foydalanish mumkin
9. Polimer eritmalarini qo`llab qanday nosozliklarni bartaraf etish mumkin

## **9-Ma`ruza**

### **MASHINA DETALLARINI TA`MIRLASH JARAYONLARI**

Reja:

- Ishlab chiqarish va texnologik jarayonlar haqida umumiy tushunchalar
- Mashinalarni ta`mirlashga qabul qilish, yuvish, tozalash, bo`laklash xususiyatlari
- Detallarni saralash

Hozirgi kunda detallarni tiklashga sarflanadigan harajatlar yangi detal yoki mashinaning narxiga nisbatan 25-30% ni tashkil qiladi.

Ta`mirlangan mashina va agregatlarning mustahkamligini yaxshilash uchun tiklanadigan detallarning yuqori sifatini ta`minlash lozim. Buning uchun korpusli va tayanch detallarning geometrik o`lchamlarini tiklash kerak.

**Dvigatelda** – bloklar, tsilindr kallagi, tirsakli va taqsimlash vallar, shatunlar.

**Shassida** – yurish elementlari, transmissiya korpuslari.

Ta`mirlash korxonalarida darzlar tufayli 20% ga qadar detallar brak qilinadi. Bular asosan bloklar, silindr kallaklari, uzatmalar korpuslari, ilashma mexanizm korpuslari va boshqa korpusli detallar.

Rezbali birikmalardagi yeyilish va nosozliklarning qiymati asosiy detallarda 30-35%, cho`yanlarda 10-12%. Ular maxsus spiralli xrom-nikel simdan tayyorlangan qo`shimchalar yordamida tiklanadi va tiklangan rezbalarning mustahkamligi ikki martagacha oshadi.

Shuning bilan birga ta`qidlash kerakki, zamonaviy traktorlar, avtomobilarda va murakkab qishloq xo`jalik mashinalarida ishlov berish aniqligiga, katta etibor berilmaydi va ko`p hollarda oddiy dastgohlarda buni taminlash qiyin.

Yangi texnologiyalar va ta`mirlash uskunalarini yaratish va qo`llashda qoplash jarayonlariga alohida e`tibor berish kerak.

Hozir tiklangan detallarning 90-95 % eritish va payvandlash usullarida bajariladi. Bu jarayon sermehnatli va serharajatli, detalni qizdiradi.

Kelajakda, detallarni tiklashda yangi usullarni ko`paytirish, mavjud jarayonlarni takomillashtirish bilan birgalikda guruh usulini qo`llash, mexanizatsiyalashgan liniyalarda bajarish lozim.

Xo`jalik mashina saroyi va TXK stansiyalarda ko`p miqdorda yig`ma birikmalardan foydalanib TXK va T ishlari bajarilmoqda. Yig`ma birikmalar esa maxsus ta`mirlash korxonalarida tiklanadi.

Tiklash uchun murakkab texnologik jarayonlarni bajarish kerak bo`lganda ular maxsus ta`mirlash korxonasiga jo`natilishi kerak.

### Ta`mirlash texnologik jarayoni

Detallarni ta`mirlash

Detallarni nuqsonlash (yaroqli yaroqsiz)

Yig`ma birikmalar va detallarni tozalash

Mashina va uning birikmalarini qismlarga ajratish

Sirtini tozalash

Qabul qilish

Ta`mirlangan mashinani egasiga topshirish

Yig`ma birikmalarini yig`ish, chiniqtirish sinash

Mashinani bo`yash

**Tipik texnologiya** – Tipik texnologik jarayonini bajarish asosiy hujjatda ketma-ketligi tartibli ravishda beriladi.

**Texnologik karta** – texnologik jarayonga oyid bajariladigan ishlarning ketma-ket keltirilgan bayoni.

Mashinani ta`mirga qabul qilishda bajariladigan ishlar

Chang, loy va boshqa iflosliklardan tozalanadi

Karter bo`shliqlaridagi moy, surkov moylar olib tashlanadi

Yoqilg`i va suv to`kiladi

Mashina butlangan (komplekt) tarzda topshiriladi

Kerakli hujjatlar (texnik pasport, ta`mirlash uchun narxlar va hokazo)

Dalolatnama rasmiylashtiriladi

Mashinaning holati ko`zdan kechiriladi

Nazorat savollari

1. Mashinalarni ta`mirlashga qabul qilishda bajariladigan ishlar
2. Agregat, detallarni yuvish tartibi va bajariladigan ishlar
3. Vashina bulaklashdan oldin
3. Agregat va uning birikmalarini qismlarga ajratish
- 4, Detallarni nuqsonlashda qanday ishlar bajariladi
5. Ta`mirlash texnologik jarayonida qanday ishlar bajariladi
6. Mashina ta`mirga qabul qilinishida qanlay hujjatlar to`ldiriladi
7. Mashina ta`mirga qabul qilinishida qanlay ishlar bajariladi
8. Ta`mirlangan mashina, agregatni egasiga topshirishda qanlay ishlar amalga oshiriladi
9. Nuqsonlash texnologik jarayoniga oyid misol keltiring

## **10-Ma`ruza**

### **TA`MIRLASH OB`YEKTINI TOZALASH**

Reja:

1.Ta`mirlash ob`yektlarini tozalash

Ta`mirlash ob`yektlarini tozalash

2.Mashina va agregatlarni bo`laklash

Mexanizatsiyalashgan yuvish mashinasi OM-1 (ta`mirlash korxonalari, TXK stansiyalari)

Ko`chma yuvish mashinasi OM - 5359

Shlangali yuvish mashinasi 5VSM - 1500

Mashinalardagi kirlarning turlari

Ichki sirtlar ifloslanishi

Tashqi sirtlar ifloslanishi

Zang va oksidlar

O'simlik qoldiqlari

Moylar

Texnologik kirlar

Qurum

Xas, cho`p, tola va boshqa qoldiqlar

Lakli cho`kindilar

Moyli kirlar

Tuzli cho`kindilar

Smolali cho`kindi

Quyqa

Zang va oksidlar

## Mashina va agregatlarni bo`laklarga ajratish

Havo tozalagichlar

Kapotlar

Kojuxlar

Ish organlari

Alovida agregat

Yonilg`i apparatlari

O`t oldirish uskunalar

Tormozlarning boshqarish mexanizmi

Uzatmalar qutisi

Dvigatel

**Bo`laklash** – har bir rusumdagи mashina uchun texnologik kartada ko`rsatilgan.

**Yig`ma birlikmalari** – maxsus stendlarda ajratiladi.

Nazoran savollari

1. Ta`mirlash ob`yektlarini tozalashda qanday jihoz va uskunalardan foydalilanildi

2. Mashina detaklarda qanday kirlani turlari mavjud bo`ladi

3. Texnologik kirlarga nimalar kiradi

4. Mashina va agregatlarning ichki detallari nima bilan va qanday ifloslanadi
5. Smolali cho`kindilar qaysi detallarda ko`proq uchraydi
6. Quyqa, qurum, tuzli cho`kindilar qaysi detallarda ko`proq uchraydi
7. Tashqi sirtlarda qanday iflosliklar ko`proq uchraydi
8. Ichki sirtlarda qanday iflosliklar ko`proq uchraydi

## **11-Ma`ruza**

### **DETALLARNI NUQSONLASH, TA`MIRLASH, KOMPLEKTLASH VA YIG`ISH.**

Reja:

- Detallarni nuqsonlash usullari
- Detallarni komplektlash va yig`ish
- Detallarni chiniqtirish

Ishlash muddati 20-25% oshadi

Detallarni nuqsonlash guruhlari

Joriy ta`mirlashda mashinadan nosoz agregatlarni yechib olib, o`rniga yangisini yoki tamirlanganini o`rnatish asosiy vazifa.

Yaroqsiz ya`ni qayta tiklab bo`lmaydigan detal **Qizil rang**

Faqat ixtisos korxonada tiklanadigan **Ko`k rang**

Ustaxonada yoki ixtisos korxonada jo`natiladi **Oq rang**

Yangi yoki normal o`lchamdagи tiklangan detal **Sariq rang**

Yaroqli detallar **Yashil rang**

## Nuqsonlarni aniqlash usullari

Induksiya (uyurmali tok) yashirin darzlar

Magnit kukun (darz, g`ovak)

Ko`zdan kechirish (tirlangan, yorilgan, zanglagan va h.k.)

## Ultratovushli usul

Kapillar (tomchilatib)

Gidravlik usul (silindr blogi kallagi) maxsus stendlarda

Rentgen usuli

Bosim usuli (suv yoki havo)

## Detallarni komplektlash

Qoldiq resursi (ish muddatiga qarab komplektlangan)

Detallar ta`mir o`lchamlari va vazni bo`yicha komplektlash

Detallarni tiklash va saralash

Belgilangan ro`yxati bo`yicha komplektlash

### **Detallarni ta`mirlasdan so`ng komplektlash va yig`ish**

Komplektlashda bajariladigan ishlar

Bo`limga keltiriladigan detallarning umumiy sifati naflari

Shesternyalar komplektini tanlash va chiniqtirish

Vazni bo`yicha komplektlash (shatun-porshen guruhi)

Tekshirish va ta`mir o`lchamiga qarab

Ish joyida ro`yxatga qarab

Nuqsonlarni aniqlash usullari

Ultratovushli usul

Induksiya (uyurmali tok) yashirin darzlar

Magnit kukun (darz, g`ovak)

Kapillar (tomchilatib)

Ko`zdan kechirish (tirlalgan, yorilgan, zanglagan va h.k.)

Gidravlik usul (silindr blogi kallagi) maxsus stendlarda

Bosim usuli (suv yoki havo)

Rentgen usuli

Detallarni komplektlash

Detallarni tiklash va saralash

Qoldiq resursi (ish muddatiga qarab komplektlangan)

Detallar ta`mir o`lchamlari va vazni bo`yicha komplektlash

Belgilangan ro`yxati bo`yicha komplektlash

Komplektlashda bajariladigan ishlar

Bo`limga keltiriladigan detallarning umumiy sifati naflari

Shesternalar komplektini tanlash va chiniqtirish

Vazni bo`yicha komplektlash (shatun-porshen guruhi)

Tekshirish va ta`mir o`lchamiga qarab

Ish joyida ro`yxatga qarab

Mashinalarni yig`ishda navbatma-navbat bajariladigan texnologik jarayonlar

**Yig`ish** – bo`laklashga teskari texnologik jarayon.

Juftlar ma`lum tartibda birlashtiriladi

Detallar juftlanadi

Yig`ma qismlar hosil qilinadi

Yig`ma qismlardan va detallardan mashina yig`iladi

Rostlanadi

Qishloq xo`jalik mashinalarining ishchi organlarini yig`ish

Qishloq xo`jalik mashinalarning ish organlari va boshqa qismlari alohida yig`iladi

Keyin mashinaga o`rnatiladi

Ular maxsus stendlarda tekshiriladi va rostlanadi

## Dvigatelni yig`ish texnologik jarayoni

Gilza-porshen guruhi alohida

Tirsakli val alohida

Gaz taqsimlash mexanizmi agregatlarini yuritish shesternyalari

Silindrlar bloki alohida yig`iladi

Silindrlar kallagi alohida

Dvigatelning detallari va qismlari o`rnataladi

Maxovik karteri va maxovik

Klapanlar shtangalari va koromislolar yig`iladi

Mashinalarni yig`ishga qo`yiladigan talablar

Yig`ma birikma detallar erkin harakatlanishi kerak

Ishqalanuvchi yuzalar moylar bilan moylanadi

Yig`ishga keltirilgan detallar tozalangan bo`lishi kerak

Ishqalanib ishlaydigan detallarning yuzalari yig`ishdan oldin artiladi va havo bilan purkaladi

Podshipnik avval 90-100°C qizdiriladi, yig`ilgandan keyin solidol bilan to`ldiriladi

Bolt va gaykalar talab etilgan kuch bilan tortib qotiriladi

### **Mashinalarda ta`mirlangan detallarni chiniqtirish**

Detallarni eksplutatsion sharoitlarda ishlashga tayyorlash uchun ularning ishqalanuvchi sirtlari chiniqtirish yo`li bilan bir-biriga moslanadi.

Chiniqtirish jarayoni

Ta`mirlashda yo`l qo`yilgan nuqsonlar aniqlanadi

Qismlar uzil-kesil rostlanadi

Mexanizmlar uzil-kesil rostlanadi

Qo`srimchalar uzil-kesil rostlanadi

Ishlatib moslash jarayoniga omillar ta`siri

**Ishlatib moslash** – chiniqtirishni bir usuli bo`lib, unga ularning urinish sirtlari kattalashib, bu sirtlarning yeyilishga chidamliligi oshadi, ya`ni detallarning ish boshlashda o`zaro ishqalanuvchi sirtlarining sifati yaxshilanadi.

Detallardagi solishtirma yuklama tekshiriladi

Qismlarning to`g`ri yig`ilganligi

Ishqalanuvchi sirtlar sifati

Harorat

Sirpanish tezligi

Moylash

Detallar sirti dag`al bo`lsa, dastlabki ishlatib moslashda ko`p yeyiladi va qo`shilmalarda tirqishlar keskin kattalashadi.

Yumshoq ashyolar yaxshi moslashadi.

Moy detallarning ishqalanuvchi sirtlarining bir-biriga bevosita urilishiga yo`l qo`ymaydi, sirtlarni sovitadi va zararli qo`shimchalarini yuvib ketadi.

Dvigatelni chiniqtirish

Dvigatellar CTE-40-1000 va CTEY-28-1000 ГОСТ universal elektr tormozli chiniqtirish stendlarida ishlatib chiniqtiriladi.

### Chiniqtirish tartibi

Sinash va ko`zdan kechirib nazorat qilish

Gaz berib yuklab chiniqtirish

Sovuqlayin chiniqtirish

**Traktorlar** – yig`iq holatda ta`mirlash korxonasining stendlarida yoki poligonlarida barcha uzatmalarda 1.5-2.0 soat davomida chiniqtiriladi.

**Yuk avtomobili** – chiniqtirish vaqtida o`ziga mo`ljallangan yuk bilan 30km yo`l o`tishi kerak. Ular qattiq qoplamlari yo`llarda barcha uzatmalarida 30km/soat oshmaydigan tezlikda chiniqtiriladi.

**Dvigatelni** – salt ishlatib chiniqtirish (15 minut) uchun u dastlabki 5 minutda dvigatel 700-800 ayl/min, ikkinchi 5 minutda 1000-1100 ayl/min va so`ngi 5 minutda eng katta tezlikda salt ishlashi lozim.

**Gidravlik tizim** – 35 minut davomida bakdagiga yonilg`i haroratini 60°C dan oshirmasdan dvigatelni 700-800 ayl/min tezlikda ishlatib chiniqtiriladi. Chiniqtirish vaqtida **bunker, ish apparatlarida** vaqt vaqt bilan (bir minutda ko`pi bilan 1 marta) ko`tariladi, tushiriladi.

**Mashina** 1 va 2 ish tezliklarida 40 minutdan, 3 tezlikda esa 25 minut , 1, 2 va 3 uzatmalarda yurgizib 15 minutdan chiniqtiriladi.

### Nazorat savollari

1. Detallarni nuqsonlashning qanday guruhlari mavjud
2. Nuqsonlarni aniqlashda qanday usullar qo`llaniladi

3. Bosim usuli (suv yoki havo) bilan qanday detallar va nimaga tekshiriladi

4. Rentgen usuli bilan qanday detallar va nimaga tekshiriladi

5. Qishloq xo`jalik mashinalarining ishchi organlarini yig`ish qanday tartibda bajariladi

6. Dvigatelni yig`ish qanday tartibda bajariladi

7. Mashinalarda ta`mirlangan detallarni chiniqtirish deganda nimani tushunasiz

8. Dvigatelni chiniqtirish tartibi nimalardan iborat

9. Traktorlarni chiniqtirish tartibi nimalardan iborat

10. Yuk avtomobilari chiniqtirish tartibi nimalardan iborat

## **12-Ma`ruza**

### **MASHINA DETALLARINI TA`MIRLASH USULLARI**

Reja:

- Ta`mirlash usullarining tasnifi
- Detallarni bosim ostida ta`mirlash usullari
- Detallarni plastic deformatsiyalash usulida ta`mirlash

#### **Umumiy tushunchalar**

Mashinalarni ta`mirlashning iqtisodiy samaradorligini oshirishda detallarning qoldiq ish muddatidan foydalanish katta ahamiyatga ega. Traktor, QXM va ularning agregatlarining asosiy ta`mirkacha xizmat muddatini o`tab bo`lgan detallarning 60-65% qoldiq ish muddatiga ega bo`lib, ta`mirlamasdan yoki oz miqdorda ta`mirlash ishlarini bajargandan keyin yana ishlatishtga yaroqli bo`ladi.

Detallarning ish muddatiga qarab guruhlanishi

Ulardan ta`mirlan-gandan keyin qayta foydalanish mumkin. Bu guruhga ancha qimmat va murakkab detallar (10-15%)

Detallarni ta`mirlamasdan yana ishlatish mumkin. Bu guruhga ish sirtlari joiz chegarada yeyilgan detallar kiradi (30-35%)

O`z ish muddatini to`liq o`tab bo`lgan va yangisiga almashtiriladigan (25-30%)

Silindrlar bloki, tirsakli val, orqa ko`prik, uzatmalar qutisining karteri, taqsimlash vali

Joiz chegarada yeyilgan barcha detallar kiradi

Porshen, porshen halqalari, podshipnik vkladishlari, quyma vtulka, rezina texnik buyumlar

### Detallarni tiklash usullari

Purkab qoplash

Metall suyultirib qoplash

Payvandlash (elektr, gaz)

Mexanik ishlov berish

Qo`srimcha detal o`rnatish

Ta`mir o`lchamiga keltirish

Jilolash

Detallar o`rnini almashtirish

Galvanik va kimyoviy ishlov berish

Sintetik ashyolardan foydalanish

Bosim bilan ishlov berish

Detallar o`rnini almashtirish bilan tiklash

Rostlash orqali ish qobiliyatini tiklash

Tishli uzatmalardagi shesternya tasmali uzatmalardagi tasmalar, avtomobil shinalarining o`rnini almashtirish

Konussimon podshipnikni o`q bo`ylab biroz siljitis, tortqichlarni tortib mahkamlash, qistirmalarni almashtirish bilan tirkishlarni rostlash. (shpindel – shchutka tirkishi)



## **1-Mavzu**

### **MASHINA DETALLARINI TA`MIRLASH USULLARI VA ULARNI TASHKIL QILISH**

Reja:

- Ta`mirlash usullarining tasnifi
- Detallarni bosim ostida ta`mirlash
- Detallarni mexanik ishlov berish yo`li bilan ta`mirlash

Ba`zi detallarning o`lchamlarini o`zgartirmasdan, detalning o`zini tiklamasdan ham ish qobiliyatini ma`lum bir muddatga ta`minlab turish mumkin bo`ladi.

## Rostlash orqali ish qobiliyatini tiklash

*Masalan:* Konussimon shakldagi rolikni podshipniklarni o`q bo`ylab biroz siljtitib. Ya`ni undagi qistirmalarni o`zgartirib, tortqilarini tortib maxkamlash, qistirmalarni almashtirish yo`llari bilan tirkishlarni rostlash mumkin. Natijada almashtirishgacha, ma`lum muddat foydalanib turish mumkin bo`ladi. Paxta terish mashinalarining ajratkich shchubkalari egilganda rostlovchi joy bilan ajratkich shpindelga 1-2mm siljtiladi va mavsum davomida ishlatiladi.

### Detallar o`rnini almashtirish usuli

Ba`zi detallar xuddi shunday detalga nisbatan ko`proq zo`riqadi va yeyiladi. Tishli uzatmalardagi shesternyalar, tasmali uzatmalardagi tasmalarning yoki boshqa detallarning ish qobiliyati yaxshisining o`rniga almashtirish yoki holatini o`zgartirish yo`li bilan qayta tiklanadi.

*Masalan:* avtomobil g`ildiraklari yeyilishi turlicha yeyiladi. Xizmat muddatini uzaytirish uchun belgilangan sxema bo`yicha shinalar o`rni almashtiriladi.

Lekin, bu usullar bilan ish qobiliyati vaqtincha tiklanadi va detalni o`zini tiklash zaruriyatidan xalos qilmaydi.

Detallarni tiklash usullari

Polimer material bilan qoplash

Mexanizatsiyalashgan yoyli va yoysiz payvandlash va metall eritib qoplash

Qo`lda payvandlash va metall eritib quyish

Plastik deformatsya

Slesar – mexanik ishlov

Termik yoki termokimyoviy ishlov berish

Metall bilan galvanik yoki kimyoviy o`stirish

Gazotermik qoplash (Metallah)

Boshqa usullar

Slesar-mexanik ishlov berish usullari

Sovuq va qizdirilgan usul

Ta`mir o`lchamiga keltirish

Detallar o`rnini almashtirish

Jilolash

Qo`shimcha detal o`rnatish

Qayta taqsimlashi hisobiga o`z shaklini o`zgartirishi

Detallarni plastik deformatsiya usulida tiklash

Deformatsion bosim bilan ta`mirlash

Cho`zish va qisish

Dumalatib nuqtalash (nakatka)

To`g`rilash

Siqish

Kengaytirish

Cho`ktirish

Elektro-gidravlik

Barometrik (bosim)

Mexanik

### **Bosim bilan tiklash usullari**

To`g`rilash

Cho`ktirish

Botirish

Cho`zish

Siqish

Kengaytirish

Detallarning shakli buzilganda to`g`rilash ishlari

buzilganda

### **To`griladigan nosozliklar**

Egilish

Qoldiq deformatsiyalar

Kuvalda, press bolg`a va h.k asboblar

Tob tashlash

Buralish

### **Slesar- mexanik ishlov berish usullari**

Egovlash

Frezalash

Yo`nish

Rezba yo`nish

Parmalash

Jilvirlash

Rezba ochish

### Nazorat savollari

1. Detallarni qanday ta`mirlash usullarini bilasiz
2. Rostlash orqali ish qobiliyatini tiklash deganda nimani tushunasiz
3. Detallar o`rmini almashtirish usuli deganda nimani tushunasiz
4. Slesar-mexanik ishlov berish usullaridan qandaylarini bilasiz
5. Bosim bilan tiklash usullarida qanday ishlar bajariladi
6. Sovuq va qizdirilgan usullari bilan qanday nosozliklarni bartaraf etadi
7. Cho`ktirish, cho`zish, qisish tiklashning qaysi usuliga kiradi
8. Yo`nish, frezalash, rezba ochish tiklashning qaysi usuliga kiradi

9. Egilish, buralish, tob tashlash kabi nosozliklar sanday usulda tiklanadi
10. Payvandlash usulida tiklash va ularning turlari

## **2,3-Мавзу: Detallarni plastik deformatsiya (bosim ostida) usulida tiklash (4 coat )**

1.To`g`rilash

2.Siqish

3.Kichraytirish

4.Cho`zish va qisish

5.Cho`ktirish

6.Dumalatib puxta-lash (nakatka)

**To`g`rakash** – detalning shakli buzilganda (egilish, buralish, tob tashlash, pachoqlanish) qizdirib – egilgan joyi 600-800°C gacha qizdirilib termik ishlov beriladi va pressda to`g`rulanadi

**Cho`ktirish** – yaxlit detallarning tashqi diametrini kattalashtirish va vtulkalarining ichki diametrini kichraytirish (shatun yuqorigi kallagi bronza vtulkalari)

**Kichraytirish** – puasson yordamida bajariladi va u tashqi diametri yeilgan detallarni ta`mirlashda qo`llaniladi (porshen barmoqlari, shlitsali va silliq vallarning sirtlari, vtulkalarni kengaytirish)

**Siqish** – vtulkalarning (tashqi diametr o`lchamlarini kichraytirish hisobiga) ichki o`lchamlarini kichraytirishda qo`llaniladi – maxsus moslama yordamida pressda siqiladi

**Cho`zish** – detalning ko`ndalang kesimini kichraytirish hisobiga uzunligini uzaytirish (tortmalar, shtangalar, lemexlar, boronalar)

**Dumalatib puxtalash (nakatka)** – detalning tashqi silindrik sirtlarini va shu sirtning ustidan siqib chiqariladigan metal hisobiga puxtalab tiklash

Plastik deformatsiyalab tiklashning:

- *Afzalligi* – oddiy, mehnat sarfi kam, narxi arzon, qo`shimcha moslama ishlatilmaydi
- *Kamchiligi* – detalning mexanik xossalari o`zgaradi, qizdirish va termik ishlov berishdagi isrofgarlik, darzlar hosil bo`lishi mumkin

**Detallarni mexanik ishlov berib ta`mirlash**

Slesar-mexanik ishlov berish

- 1.Egovlash
- 2.Frezalash
- 3.Jilvirlash
- 4.Parmalash
- 5.Yo`nish
- 6.Qirqish

Slesar-mexanik ishlov berishda detallar sirtidan, ichidan chizmaga binoan shakl va o`lcham berish uchun metal qatlami qirqib olinadi. Bu jarayon turli moslama va qirqish asboblaridan foydalanib qo`lda yoki maxsus metal qirqish stanoklarida bajariladi.

Stanoklar detal va asbobning zarur harakatlanishini ta`minlaydi, moslamalardan detallarni mahkamlash va ulardan to`g`ri yo`nalishda foydalaniladi.


Qirqish asbobi ishlov beriladigan detal shaklini o`zgartiradi.

Mexanik ishlov berish dastlabki (shilish, xomaki) va uzil-kesil (tozalab, aniqlikni ta`minlab) turlarga bo`linadi. Dastlabki ishlov berishda asosiy detal yo`nilib, uzil-kesil ishlov berishga qo`yim qoldiriladi.

**Egovlash** – qirqish asbobi – egov bilan material ishqalanishi egovlashdan iborat. Qo`yimi ko`pi bilan 2-3mm bo`lgan detalni egovlagan maqul, egovlashda ishlov berish aniqligi 0.02-0.05mm. Qo`llaniladigan jihozlar: Stol, tiski (qisqich), egov (tishlari turli o`lchamda)


**Yo`nish** – yo`nishda detal stanokning patroniga o`rnatalib aylantiriladi, keskich esa ilgarilanma harakatlantiriladi.

Tokarlik stanok sxemasi




Bajariladigan


ishlar




Yo`nish




Parmalash




Kesish



Shakl berish,





Rezba ochish



Ichki teshikda faska

### Frezerlash

Stanoklarning turlari: Gorizontal shpindelli. Vertikal shpindelli



### Nazorat savollari

1. Ish muddatiga qarab detallar qanday guruhlanadi
2. Detallarga mexanik ishlov usullarini tasniflang
3. Slesar-mexanik ishlov berishga qanday jarayonlar kiradi
4. Qirqish, yunish, parmalash qanday dastgohda bajariladi
5. Shesternyalarning tishlari qanday dastgohda bajariladi
6. Parmalash dastgohida ishlar bajariladi
7. Frezerlash dastgohining qanday turlari mavjud va ularda qanday ishlar bajariladi
8. Vallarga rezba ochish qanday dastgohda bajariladi
9. Teshiklarda rezba ochish qanday dastgohlarda bajariladi
10. Shponka ariqchalari qanday dastgohda bajariladi

## **5,6-Мавзулар**

### **DETALLARNI PAYVANDLASH USULIDA TA`MIRLASH (4 coat)**

- Payvandlash tasnifi va mohiyati
- Payvandlash turlari

**Payvandlash** – detallarning ma`lum joylarini suyuqlanish haroratigacha qizdirib, molekular kuchlardan foydalanib, ajralmas birikma hosil qilish jarayoni.

Ta`mirlash korxonalarida darzlar tufayli 20% gacha bloklar, silindrlar kallagi, ilashma korpuslari, uzatmalar qutisi va boshqa korpusli detallar yaroqsizga chiqariladi.

Hozirgi kunda nosoz detallarning 70-80% yoyli payvandlash va eritib qoplash usuli yordamida tiklanadi. Bu jarayon sermehnat va ko`p quvvat talab qiladi, detallarni qizdirish kerak bo`ladi. Eritib qoplangan detallarni talab darajasiga keltirish uchun mexanik ishlov berishda qoplangan metallning 45% qirindiga chiqib ketadi. Bu jarayonlarni bajarish uchun qimmatbaho metallga ishlov beruvchi uskunalardan foydalilanadi. Demak detallarni tiklashda yangi

texnologiyalarni yaratish kerak bo`ladi. Shunday bo`lsada hozir payvandlash detallarni tiklashda keng qo`llanib kelinmoqda.

### O`rta uglerodli va kam legirlangan po`latlarni payvandlash o`lchamlari

Payvandlanadigan detalning qalinligi, mm	Elektrod diametri, mm	Tok kuchi, A
2...4	3...4	70-125
4...6	4...5	150-200
6...10	5...6	200-400

### Payvandlash usullari

Detalning ayrim joyini eritib payvandlash (gaz va elektr yordamida payvandlash)

Gaz yordamida payvandlash

Elektr yordamida payvandlash

Temirchilik usulida (qurada qizdirib) payvandlash

### Temirchilik payvandlash

- biriktiriladigan joylarning metall qismlari yumshab, xamirsimon holatga o`tguncha qizdiriladi;
- birlashtiriladi va birlashtirilgan joyi to`qmoq bilan parchinlanadi yoki press bilan qisiladi;

Temirchilik payvandlash asosan QXMni ta`mirlashda po`latdan yasalgan detallarni biriktirishda qo`llaniladi.

Payvandlanadigan joylar oldin yaxshilab tozalanadi.

Suyuqlantirilgan payvandlanadigan joylarni qisishdan oldin ularga flyus (asosan qum) sepiladi. Bu birikishga halaqit beradigan payvand shlaklarini

suyultirish va metallmas komponentli qismlar qisish paytida choklardan chiqib ketadi.

Temirchilik payvandlash asta-sekin ishlab chiqarishdan siqib chiqarilmoqda.

### **Detallarni ayrim joylarini eritib payvandlash**

- gaz va elektr yordamida payvandlanadi;
- biriktiriladigan qismlarning tutashish joylari metall eriguncha qizdiriladi;
- suyuq metall o`z-o`zidan umumiy payvandlash vannaga oqib tushib va qotgandan so`ng mustahkam birikma hosil qiladi;

### **Gaz alangasida payvandlash.**

**Gaz yordamida payvandlash** – yonuvchi gazning toza kislород bilan aralashmasi yonganda hosil bo`ladigan alanga bilan metall qismlarini erish haroratigacha qizdirib, ajralmaydigan birikma hosil qilish jarayoni.

- payvandlashda chiviqlar uchi gorelka alangasida eritiladi va payvand chokiga qo`shiladi; yonuvchi gaz va kislород ma`lum proporsiyada qo`shilishi va yaxshi aralashtirilishi lozim;
- dozalash va aralashtirish maxsus garelkalarda \_malgam oshiriladi;
- payvandlashda erigan asosiy metallga chiviqlar tarzida tayyorlangan qo`shimcha material
- list materiali uchma-uch payvandlanganda yoki 5mm qalinlikdagи yoriqlarni payvandlaganda qirralariga qo`shimcha ishlov beriladi. Qalinligi 5...12mm gacha – qirrasi bir tomonlama (V-simon), 12mm dan oshiq – ikki tomonlama (X-simon choklanadi);
- payvandlash uchun eng yaroqli atsetelin-kislород alangasi minimal harorati 3200°C;

Kislород va atsetilen nisbatiga ko`ra alanga xillari

Uglerodlovchi

Oksidlovchi

Normal

Po`lat odatda kislород bilan atsetelining haqiqiy nisbati 1,1...1,2 bo`lgan alangada payvandlanadi. Agar kislород ko`p bo`lsa – oksidlovchi, agar Uglerod ko`p bo`lsa uglerodlovchi bo`ladi.

## **7,8-мавзулар Elektr yoyi yordamida payvandlash (4 coat).**


1.Elektr yordamida payvandlash turlari

2.Elektr yoyi yordamida

3.Elektr kontakt yordamida

Elektr yoyi yordamida payvandlashda materiallarning ayrim joylarini elektr yoyining isiqligi tasirida eritib yopishtirib, ajralmas birikma hosil qilinadi.

- Yoy ustunining harorati  $3000^{\circ}\text{C}$  dan ortiq bo`ladi;
- Yoning issiqlik quvvatini tok kuchini o`zgartirib rostlab bo`ladi, bu esa turli materiallarni payvandlashga imkon beradi;
- Yoy yordamida payvandlash 1802 yilda rus fizigi V.Petrov ixtiro qilgan. Rus injineri N.Benardos 1882 yilda elektr tokening tasirida metallarni biriktirish va ajratish usulini kashf qilgan.



Benardos usulida payvandlash sxemasi: 1-elektr yoyi; 2-chiviq; 3-ko`mir elektrod; 4-elektr tutgich; 5-payvandlanadigan material

Elektr yoyi yordamida payvandlash

O`zgaruvchan tok bilan

O`zgarmas tok bilan

Payvandlash generatori qo`llaniladi

Transformatorlar qo`llaniladi

**O`zgaruvchan tok** – bilan payvandlash o`zgarmas tokda payvandlashga nisbatan tejamliroq bo`ladi va jihozlari ixcham, yengil va ancha soda bo`ladi. O`zgaruvchan tok bilan payvandlashda detal qanday elektrod bilan biriktirilishiga qarab, to`g`ri va teskari qutbliga bo`linadi.

**To`g`ri qutblida** detal payvandlash generatorining musbat (anod) qutbiga, elektrod esa manfiy qutbiga ulanadi. Musbat qutbda manfiy qutbga nisbatan ko`proq issiqlik ajraladi. Shu tufayli, detalning sirti ko`proq qiziydi va chuqurroq eriydi. Detalning kirishishini kamaytirish uchun zarur hollarda **teskari qutbli** payvandlash usuli qo`llaniladi, masalan, yupqa (3mm dan yupqa) detallarni, ba`zi legirlangan po`latdan yasalgan detallarni payvandlashda, cho`yan detallarni qulay elektrodlar bilan sovuqlayin payvandlashda shunday qilinadi.

Eritib payvandlash metallning zarur qattiqligi va yejilishga chidamliligini taminlaydi. Bunday elektrodlar diametri 3...6mqli payvandlash simidan tayyorlanadi.

Elektrod sirtiga 0,10...0,25mm qalinlikdagi bo`r qatlami (80% bo`r, 20% suyuq shisha) qoplanadi.

Elektr yoyi yordamida payvandlanadigan detallarning materiallari

Ularning qotishmalari

Titan

Nikel

Aluminiy

Mis

Qariyb barcha konstruksion po`latlar

Cho`yan detallarni payvandlashda ular qizdirilmaydi. Bu usulda payvandlashda cho`yanning yorilishiga, payvand chokning toblanishiga va ichki kuchlanishning paydo bo`lishiga yo`l qo`ymaydigan maxsus elektrodlardan foydalilanildi. Sovuqlayin payvandlashda teskari qutbli o`zgarmas tok va diametric 3...4mqli elektrodlar tavsiya etiladi.

**Elektrokontakt usulida** metal ko`pincha qizdirib yopishtirish val va o`q tipidagi detallarni tiklashda ishlatiladi.

Usulning mohiyati:

- detal tokarlik stanogi shpindeliga o`rnatiladi;
- aylanuvchi detal bilan tik rolik – elektrod orasiga metall kukuni (aralashma) uzatiladi;
- rolik pnevmo yoki gidrosilindr yordamida 0,75...1,2 kN kuch bilan detalga siqiladi;
- detal va rolikni dumalatish vaqtida ularning tegish joyidagi kata elektr qarshiligi natijasida kukun 1000...1300°C gacha qiziydi;
- kukunning qizigan zarrachalari birlashib detal sirtiga yopishadi. Bunda rolik yoyining 1sm ga kata kuchdagi tok 2500...3500 A va past kuchlanish 0,7...1,2V ishlatiladi;
- qatlamning (bir aylanishdagi) qalinligi siquvchi rolik va detalning diametriga bog`liq bo`lib 0,3...1,5mm gacha bo`ladi;
- detalni bir necha qatlam hosil qilib qoplash mumkin;
- kukun yopishtirish tezligi 0,17...0,25 m/min

## **Jarayonning afzalliklari**

Yopishtirilgan qatlam yeyilishga chidamli bo`ladi

Detalga issiqlik ta`siri kam bo`ladi

Detal kam qiziydi

Yuqori ish unumi

## **Jarayonning kamchliklari**

Jihozlarning murakkabligi

Qatlamning cheklanganligi

Nazorat savollari

1. Payvandlash texnologik jarayonini tasnifi
2. Payvandlash uaullari
3. Temirchilik payvandlash ta`rifi
4. Gaz alangasida payvandlash ta`rifi
5. Elektr yoyi yordamida payvandlash.
6. Elektr yoyi yordamida payvandlashning qanday turlari mavjud
7. Elektrokontakt usulida payvandlasning mohiyati nimalardan iborat
8. O`zgaruvchan tokda payvandlasning qanday ahamiyatlarini bilasiz
9. Cho`yan detallarni payvandlash jarayonini ta`riflab bering
10. Benardos usulida payvandlash sxemasi va jarayonini tasniflab bering

## **9\10,11-Мавзулар**

### **DETALLARNI QOPLASH BILAN TA`MIRLASH (6 coat)**

**Metallash** – (metall purkash) metall simini yoki kukunni suyultirib va mayda zarrachalar (3-300mkm) holida inert gaz yoki havo oqimida detalning maxsus tayyorlangan sirtiga purkash jarayoni.

Metallash usullari

1. Plazmaviy metallash (plazma oqimi yordamida suyuqlantirish)
2. Elektr yordamida metallash
3. Gaz alangasida metallash

Metallash sifatini aniqlash usullari

- 1.Suyuqlantirilgan metal-ning asosiy metallga puxta yopishganligi
- 2.Yeyilishga chidamliligi

3.Qattiqligi

4.Qoplamaning tuzilishi

Suyultirilgan metallni asosiy metallga puxta yopishganligini ta`minlash uchun, detalning sirtini metallashga yaxshilab tayyorlash lozim.

**Metallahsga tayyorlash:**

1.Detalning sirtiga mexanik ishlov beriladi

2.Tozalanadi

3.G`adir-budurlar yo`qotiladi

4.To`g`ri geometrik shaklga keltiriladi

5.Kirdan tozalanadi

6.Moydan tozalanadi

7.Zangdan tozalanadi

**Elektr yordamida metallash**

Usullari

1.Yuqori chastotali tok yordamida

2.Elektr yoy yordamida

Qo`llanishi

1.Jarayon qimmatga tushadi. Jihozlari juda katta kuch talab qilmaydi

2.Hozirgi kunda TK larda keng foydalanilmoqda

**Gaz alangasida metallash texnologiyasi**

Siqilgan havo yoki inert gaz yordamida purkaladi

Purkaladigan metal yonuvchi gaz bilan kislorod alangasida suyuqlashtiriladi

Yonuvchi gaz sifatida atsetilen, propan-butan ishlatiladi

Gaz alangasida metallashda metal qoplash juda yuqori sifatli chiqadi. Metall nisbatan bir jinsli zarrachalarga parchalanadi, legirlovchi elementlar uncha ko`p kuyib ketmaydi, qoplamdagagi oksidlar qo`shilmasi 3% dan oshmaydi.

### **Plazmali metallash – istiqbolli usul**

Plazma yuqori haroratdagi kuchli ionlashgan modda bo`lib uning tarkibida ko`p miqdorda zaryadlangan zarrachalar bo`ladi

Bunda plazma oqimi yordamida suyuqlashtirilgan metall plazma hosil qilish va himoyalashda ishlatiladigan gazlar yordamida purkalib qoplanadi


### **Metallashning mohiyati**

- 1.Ishqalanishni kamaytiradi
- 2.Korpus detallari va chuqurlari to`ldiriladi
- 3.Val va yassi sirtlarning yeyilgan qatlamini to`ldiriladi
- 4.Sirt yeyilishga juda chidamli bo`ladi

Pardoz qoplamarini yotqizish mumkin

Zanglashdan saqlaydi

Olovga bardoshli bo`ladi



Elektr yoyli metall purkash usuli

### **Galvanik qoplash yo`li bilan ta`mirlash.**

#### **Xromlash, temirlash.**

Detallarni galvanik qoplamlar bilan tiklash elektroliz hodisasiga asoslangan.

1.Elektrolitlar

2.Boshqa kimyoviy birikmalarning eritmalar

3.Kislota

4.Shakar

5.Tuz

Elektrolitlardan elektr toki o`tkazilganda elektroliz hosil bo`ladi.


Detal tokning manfiy qutbiga ulanganda, uning yeyilgan sirtiga metall o`tiradi.

Detal tokning musbat qutbiga ulanganda anod ikkinchi elektrod sifatida xizmat qiladi.

Galvanik qoplama yordamida detallarni tiklash xromlash va metallash.

Hozirgi kunda traktor va avtomobilarning 83% dan ortiq detallari, dvigatelning esa 95% detallari 0,3mm yeyilish bilan yaroqsizga chiqariladi.

Detallar	maxsus	vannada	tiklanadi.
----------	--------	---------	------------



1. Tok manbai
2. Vanna
3. Anod
4. Katod
5. Xromlanadigan detal

Bu vannada elektroliz natijasida elektr toki o`tkazilganda elektrolitning ionlari – teskari zaryadlangan (anionlar) anodga qarab harakatlanadi, manfiy zaryadlangan (kationlar) – katodga harakatlanadi.

**Xromlash.** Bu usul ta`mirda uncha keng qo`llanilmaydi, chunki u murakkab va qimmatbaho, maxsus sexlar va yuqori malakali mutaxassislar talab qiladi. Shuning uchun detallarni ko`plab nusxada tiklash qo`llaniladi. Masalan, dumalash podshipniklar o`tqaziladigan joylarni tiklashda.

Vannadagi po`lat bakning devorini elektrolitning yemiruvga tasiridan saqlash uchun qo`rg`oshin, polixlorvinil lak va h.k lar qoplanadi.

Vanna ikki qavat bo`lib, bak bilan g`ilof orasidagi bo`shliq suv bilan to`ldiriladi – bu elektrolitning haroratini saqlab turish va uni isitish. Vanna bortida ventilyatsiya teshigidan zararli gaz va bug`lar chiqadi.

Vannaning shtangalariga xromlanadigan detal va metall plastinalar osib qo`yiladi.

Xromlashdan oldin detal jilvirlanadi va unga to`g`ri geometrik shakl beriladi, moysizlantiriladi va oqava suvda yuviladi.

### **Xromlash texnologiyasi tasnifi**

Xromlanmaydigan joylar lak surtib izolyatsiyalanadi

Ishqor eritmasi va oxak bilan moysizlantiriladi

Geometrik shakl berish

Jilvirlash

Oqova suvda yuviladi

Xromlangan detallar distillangan suvda yuviladi va o`sha havoda qurutiladi.

Listli vannada 1,5-2 soat 150-180°C harorat ostida qizdiriladi.

Ular juda qattiq va yeyilishga chidamli. Chiroy ko`rinishi bo`yicha ham qo`llaniladi. (plunjerli juftlar, zolotnik juftlari, shpindel)

**Temirlash** – xlorli elektrolitdan foydalanib chidamli, qattiq qotishmalar hosil qilish uchun foydalaniladi.

Afzalliklari:

- tok kam sarflanadi (5-6 marta)
- qoplama tez hosil bo`ladi (0,3-0,5 mm/soat)
- yeyilishga chidamli
- qalinligi 1-1,5 mm qoplama hosil qilish mumkin

#### Nazorat savollari

1. Metallash jarayonini ta`riflab bering
2. Metallash usullari va ularning afzalliklari
3. Metallashdan oldin detalga qanday tayyorgarlik ishlari bajariladi
4. Plazmali metallash texnologik jarayonini ta`riflab bering
5. Metallashning mohiyatini tushuntirib bering
6. Galvanik qoplash yo`li bilan ta`mirlash usuli.
7. Galvanik qoplash yo`li bilan ta`mirlash usuli (xromlash) nivalarga asoslangan.
8. Xromlash texnologiyasi to`g`risida tushuncha bering
9. Xromlash vannasida tiklash sxemasi va texnologiyasini tushuntiring
10. Temirlash usulida tiklash texnologik jarayoni tushuntiring.

## **12-13-14-Маруза**

### **DETALLARNI PLASTMASSA VA POLIMER MATERIALLARDAN FOYDALANIB TA'MIRLASH**

Reja:

- Detallarni polimer materiallardan foydalanib tiklash
- Detallarni plastmassa materiallardan foydalanib tiklash
- Detallarni sintetik yelimlar bilan tiklash

Polimer materiallarning turlari

**Plastmassa** – asosi yuqori molekular organik birikmalardan iborat material. Ular yuqori harorat va bosim tasirida avvaldan belgilangan shaklni hosil qiladi va bu shaklni odatdagি sharoitda saqlab qoladi.

Voloknit TU NIXP 459-41

Ftoroplast VTU FA-4-59

Polietilen VTU MYP 4138-55

Termoplast

Kley VS-10T

Epoksid smolalari ED-6; ED-5;

Polikaprioamid VTU, UXP 6A-58

Polimer va plastmassa materiallar qoplashning xususiyatlari

Moy, benzin va suvgaga chidamli

Yetarli puxtaligi

Kam mehnat sarfi

Tannarxi arzon

Detallarni yasash oddiy

Detallarni tiklash oddiy

Plastmassa – ko`p komponentli aralashma (tarkibi)

Bo`yoqlar

Qotirgichlar

Plastiklovchilar

To`ldiruvchilar

Asosi sun`iy yoki tabiiy smolalar

Tezlatkichlar

Maxsus xususiyat beruvchi boshqa qo`shilmalar

Bog`lovchi material vazifasini bajaradi

Kamchiliklari

Toliqish natijasida issiqbardoshligi pasayishi

Toliqishi natijasida puxtaligi kamayishi

Qattiqligi nisbatan kamligi

Fizik, mexanik xossalaring o`zgarishi

**To`ldirgichlar** – plastmassaning fizik, mexanik, friksion yoki antifriksion xususiyatlarini yaxshilaydi, issiqlikka chidamliligini oshiradi mahsulot tannarxini arzonlashtiradi.

To`ldirgichlar

Grafit va boshqalar

Asbest

Paxta qog`oz to`qimalari

Sement

Metall qirindilari

**Plastiklovchilar** – (olein kislotasi va boshqalar) polimerlarga qovushqoqlik va oquvchanlik xususiyatini berishga xizmat qiladi.

Qotirgichlar

**Qotirgichlar** – polimerlarni qattiq va erimaydigan holatga o`tkarishga yordam beradi.

Boshqalar

Magneziy

Oxak

Aminlar

### **Detallarni epoksidli smola aralashmasi bilan tiklash.**

ED-6 smolasiga asosidagi aralashma biri ikkinchisiga yaxshi biriktirilgan detallarni yelimlab yopishtirib, darzlar va tirkishlar yamaladi, yeyilgan yuzalarga qoplamlar qoplashda ishlatiladi.

-70°C dan +120°C gacha haroratda ishlaydigan detallarni tiklash uchun quyidagi tarkibdagi aralashma tavsiya etiladi:

100 qism (massasi bo'yicha) uchun 7-8 qism qotirgich (polietilenpoliamin), 12-15 qism plastifikator (libutilortalat) olinadi va to'ldirgich sifatida temir kukuni, PAK-1 aluminiy kukuni 500 markali sement ishlatiladi.

Po`lat va cho`yan detallardagi darz hamda teshiklarni yamashda to`ldirgich sifatida 16 qism temir kukuni yoki 120 qism sement, aluminiy detallarni tiklashda esa 30-40 qism aluminiy kukuni ishlatiladi.

Aralashmani tayyorlash texnologiyasi

Plastifikator qo'shib aralashtiriladi

Aralashmaga qo'shishdan oldin quritish shkafida 110-115°C da 3 soat bug`latiladi

Zarur bo`lsa 100-120°C gacha 2-3 soat quritilgan to`ldirgich qo'shiladi

Epoksidli smola idishda 60-80°C gacha qizdiriladi

**Yeyilgan teshiklarni epoksid smola aralashma bilan tiklash**

Aralashmani surkashdan oldin detal yuzasi yaltiraguncha tozalanadi va bug`sizlantiriladi

Aralashmani surkash, yamoq solish va qotirish texnologiya hamda darzlarni yamashda ishlatiladi

Okravka avval yupqa qatlam moylanadi. Surkalgan moy qatlam 60°C da 4-5 soat yoki 100°C da 2 soat qotiriladi

30 daqiqadan keyin teshik o`lchami berilgan maxsus okravka yordamida meyoriga keltiriladi

Tayyorlangan yuzaga aralashma surkaladi

### **Detallarni sintetik yelimlar bilan tiklash**

VS-10T

**Yelimlar – VS-10T va BF tiplari**

Ishlatsa bo`ladi: metall, shisha, teketolib va boshqa material

Ilashish muftasi disk

Tormoz kolodkasi

Ustqo`ymalar

**Qotish rejimi:** Yopishtirilgan yuzalarni 0,2-0,4 MPa bosimda, harorati 175-185°C, davomiyligi 1,5-2 soat

### Nazorat savollari

1. Polimer materiallarning qanday turlarini bilasiz
2. Plastmassa va uning xususiyatlari
3. Polimer va plastmassa materiallar qoplashning xususiyatlari
4. Plastmassa aralashma komponentlarining tarkibi nimalardan iborat
5. Polimer arakashmasida tezlatkichlarning vazifasi nimalardan iborat
6. Polimer bilan qoplasning kamchiliklari
7. To`ldirgichlarning vazifasi nimalardan iborat
8. Qotirgichlarning vazifasi nimalardan iborat
9. Detallarni epoksidli smola aralashmasi bilan tiklashni tasniflab bering.
10. Detallarni sintetik yelimlar bilan tiklashni tasniflab bering

**15-16-17-Ma`ruza**

## **TRAKTORLARNING BIR RUSUMDAGI DETALLARINI TA`MIRLASH**

Reja:

- Traktordagi bir rusumdagи agregatlar
- Silindrlar blokini ta`mirlash
- Tsilindrlar blokining kallagini ta`mirlash
- 4. Silindr gilzalarini ta`mirlash

### **Tsilindrlar blokini qayta tiklash**

**Silindrlar bloki** – dvigatelning barcha mexanizmlari joylashgan bo`lib, ularning mustahkam va uzoq muddat ishlashini taminlaydigan korpus.

**Korpus materiali** – o`rta va yuqori sifatlı cho`yandan. Ishlash davrida unda paydo bo`ladigan deformatsiya va darzlar ko`p hollarda qoldiq yuklanishlar natijasida vujudga keladi.

**Silindrlar bloki** – dvigatelning eng qimmat, metall hajmi ko`p detail.



#### **Nosozliklari:**

- darz va o`yiqchalar – tashqi kuzatuv va bloklarni gidrosinash stendi yordamida aniqlanadi.
- tsilindrlar o`tiradigan teshiklarining yeyilishi, ovalligi hamda taqsimlash valining vtulkasi o`tiradigan teshiklar kalibr-probka orqali aniqlanadi.
- o`zak tayanch va yig`ilgan tayanchlarning o`qdoshligi – KI – 4862 markali pnevmatik moslama orqali ta`mirlanadi.

Kalibr-opravkalar ikki xil bo`ladi:

- birinchi kalibrlar – yangi va ta`mirlangan karter bloklarini nazorat qiladi;

- ikkinchi kalibrler – silindrlar blokini detalyatsiya qilishda qo`llaniladi;



D – 240 dvigatelining tsilindrlar bloki

#### Tsilindrlar blokining nosozliklari

T/r	Nosozliklar nomi	Takrorlanish koeffitsienti		Bartaraf etish usullari
		Defekt - lashga kelgan.	Tamirdan chiqqan detallar.	
1	Suv devorlaridagi darz va o`yqliklar	0,03-0,05	0,04-0,05	Nosoz uya yo`niladi, eritib quyish va kerakli o`lchamda yo`nish
2	Silindr gilzalari o`rnatiladigan tutash joylardagi darzlar	0,04	0,07	Darzlar payvandlanib epoksid smola yordamida germetiklanadi yoki figurali ustqo`yma bilan berkitiladi
3	Tayanch podshipnik ustqo`ymalari o`rnatilgan teshikning yuzi yeyilishi, ovalligi va konusligi	0,1-0,2	0,15-0,25	Kattalashtirilgan ustqo`yma o`lchamiga mos yo`nish.po`lat nuqtali payvandlab keyin normal o`lchamda yo`nish
4	O`qdoshligi buzilgan	0,15-0,2	0,18-0,25	O`zak ustqo`ymalarni, yoki yangi ustqo`y-

				malar blok tayanchini tamirlash
5	Silindr gilzasining pastki belbog`iga o`tiradigan joylarda korroziya va yeyilish			O`tiradigan joylar yo`niladi va halqa epoksidlanib qo`yiladi
6	Silindr o`tiradigan yuzalarning ovalligi	0,3	0,35	Silindr gilzasi o`tiradigan ikki joy ham birgalikda razvyortka qilinadi
7	Taqsimlash vali vtulkasining ichki yuzasi yeyiladi	0,05-0,1	0,07-0,15	Vtulka almashtiriladi
8	Rezbali birikmalarda rezba buzilishi, shpilka uzilishi	0,2-0,4	0,3-0,45	Shpilkalar almashtiriladi rezbali ustqo`ymalar o`rnatiladi

### Tsilindrlar blokini tiklash texnologiyasi

Rezbali birikmalarni tilash

Silindr gilza o`tiradigan yuzalarni tiklash

Tayanch podshipnik uyalarini tiklash

Darzlar va yoriqlarni bartaraf etish

Tiklangan silindrlar blokini nazorat qilish

## Tsilindrarda uchraydigan nosozliklar

Ish sirtida sidirilish paydo bo`lishi

Ish sirtida chiziqlar paydo bo`lishi

Ish sirtining korroziyasi

Ish sirtining yejilishi

Moy va abraziv zarrachalar tasirida yejilish

## Yeyilish

Ish sirti balandligi bo`ylab ham diametri bo`ylab ham bir meyorda yejilish

